

## ABDULLA AVLONIY FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

## A GLANCE AT ABDULLA AVLONI'S ACTIVITY

Jorayev Oybek Sherali ogli

TDPU named after Nizami, Uzbek language and literature department

3rd grade student

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligi tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan, ma'rifatchilik g'oyalari bilan bashariyat olamida e'zoz topgan inson – Abdulla Avloniyning hayot yo'li va uning adabiyotga qo'shgan hissasi xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqillik, jadidchilik, Abdulla Avloniy, pedagogika, ta'lim-tarbiya, drama, inqilob, ma'naviyat, g'oya.

**Abstract:** This article talks about the life path of Abdulla Avlani, a person who has his place in the history of Uzbek literary studies, who has gained fame in the world of humanity with his ideas of enlightenment, and his contribution to literature.

**Keywords:** independence, news, Abdulla Avlani, pedagogy, education, drama, revolution, spirituality, idea.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari, tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi [1.3-b].

O'tmishda bir qancha yurtimizdan chiqqan allomalar, olim-u fuzalolar o'zining g'oyalari va bilimi bilan bashariyatga yordam berganligi inson bolasi uchun eng oliy baxtdir. Ana shunday odamlardan biri XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili, tilshunos olim, davlat arbobi, jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdulla Avloniydir.

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyul sanasida Toshkent shahrida oddiy hunarmandchilik bilan oila boquvchi kosib Miravlon aka xonadonida tavallud topgan. Oilasi juda nochor ahvolda yashaganligi uchun (bu davrda o'ziga to'q insonlar juda kam bo'lib, bu holat siyosat bilan bog'liq jarayon edi – O.J.) Avloniy 12 yoshida kechikib madrasaga borishga, 13 yoshidan esa mardikorlik qilishga majbur bo'ladi.

Yosh bo‘lishiga qaramasdan matbuotga qiziqqan Abdulla Avloniyga jahon xabarlaridan xabardor bo‘lishga “Tarjimon” gazetasi yaqindan yordam beradi.

Abdulla Avloniy 14 yoshdan boshlab she’rlar yoza boshlagan bo‘lsa, keyinchalik bu she’rlar boshqa janrdagi asarlar yozilishiga tamaltoshi vazifasini o‘tagan va bu asarlarda ijodkor “Qobil”, “Shuhrat”, “Hijron”, “Abdulfayzxon”, “Avloniy” va “Indamas” kabi taxalluslarni qo‘llaydi.

Adabiyotga ixlosmand olim jahon hamda o‘zbek adabiyotini juda chuqur o‘rganadi va masalchilikda rus ijodkori Krilov yo‘nalishida ijod etadi. Avloniy ilmiy asarlar ham yozadi va nazariy bilimlarni juda chuqur egallaydi.

Uning ijodiy sohadagi harakatlarini ikki katta guruhga ajratish mumkin:

- 1) Pedagogik qarashlar va ularga oid ilmiy-nazariy adabiyotlar
- 2) Badiiy asarlar va ularga oid ilmiy-nazariy adabiyotlar

Pedagogik qarashlari aks etgan asarlar sirasiga “Birinchi muallim” nomli asarni kiritish mumkin. Bu asar O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sistemasidagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan “Alifbe” kitobiga teng bo‘lgan asar hisoblanadi.

“Ikkinchi muallim” – asar xat-savodi chiqqan xalq bolalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, hozir maktablarda o‘tilayotgan “O‘qish kitobi”ga teng keladigan asar hisoblanadi, bu asar oxirigacha tugallanmay qolgan.

“Turkiy guliston yoxud axloq” – ta’limiy va tarbiyaviy ruhdagi asar hisoblanadi. Bu asar haqida G.Niyozova “Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari” kitobida shunday yozadi: Turkiy guliston asari axloqiy va ta’limiy, tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi» [2.92-b].

Chindan ham bu asarda insonlarni yaxshilikka chorlash, ilm-ma’rifat targ‘ib qilish, yaxshi xulqli, odob-axloqli bo‘lishga chqiruvchi nodir qo‘lyozma asardir. Asar hajman kichik bo‘lsa-da, haqiqiy komil insonni tarbiyalashga alohida e’tibor berilgan. “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir [3]. Ushbu ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar ham Turkiy guliston yoxud axloq asaridan olingan. Asarda kishilarning ijobiy va salbiy xarakterlari ochiq-oydin ochib berilgan.

Abdulla Avloniyning yozuvchilikdagi ijodiy faoliyatini, asosan, dramatik turdagi badiiy asarlar tashkil etadi.

“Advokatlik osonmi?” – bu asar chet davlatda huquqshunoslik sohasi bo‘yicha o‘qib kelingan, ilm-ma’rifatli, zamonaviy musulmon 24 yoshli yigit to‘g‘risida gap ketadi. Unda ko‘tarilgan mavzu o‘sha davrdagi savodsiz xalqning o‘z haq-huquqlarini hmoya qila olmasligi va o‘zlari tomonidan tuzatib bo‘lmas xatoga yo‘l qo‘ysa-da, muammoli ishlarini hal qilib berishini talab qiluvchi xalq aks etgan.

“Pinak”- ushbu asar Turkistonda sodir bo‘layotgan voqealarning inikosi sifatida talqin etilishi mumkin. Bu asarda butun jamiyat ahvoli Tursun va uning sheriklari misolida ochib beriladi. Chindan ham asarni o‘qish chog‘ida o‘sha davr odamlarining qanchalar darajada ma’naviy

darajada past ekanligini hamda nima sababdan Chor Rossiyasining bunchalar oson O'rta Osiyoni, xususan, Turkistonni zabt etganligi haqida haqida tasavvurga ega bo'ladi kishi.

“Portugaliya inqilobi” – asar 1910-yilda Portugaliyada bo'lgan monarxiya boshqaruv tuzumiga qarshi inqilob bo'lishi misolida yozilgan 5 pardali dramatik asardir.

“Biz va siz” – bu dramada o'tgan asrning boshida Turkistonda yangicha va eskicha qarashlar o'rtasidagi kurash va ularning yechimi asardagi qahramonlar hayoti misolida ochib berilgan.

“Ikki sevgi” – bu asar ham dramatik turga mansub bo'lib, Turkiyada inqilobiy harakatlar yoshlar taqdiri misolida ochib berilgan.

Shu o'rinda Abdulla Avloniyning bu kabi dramatik asarlarni yozishdan maqsadi nima edi? degan o'rinli savol tug'iladi. Mazkur inqilobiy g'oyadagi dramatik asarlarni yozishdan maqsad shuki, xalqni, ya'ni ularning ongiga mana shunday inqilobiy harakatlar qilish va mustaqillikka erishish g'oyalarini singdirishdan iborat ekanligini o'qirman anglashi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Avloniy butun hayotini xalqning erkin va farovon, davlatning ozod va obod bor kuch va imkoniyatini safarbar etgan buyuk o'zbek olimidir. Uning xalqni ziyoli, ilm-ma'rifatga oshno xalq bo'lishini va shu orqali mustaqillikka ega bo'lishini angladi, bu harakatlar ularni erkinlikka olib boruvchi yagona yo'l ekanligini angladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ислом Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент: «Шарқ», 1998.
2. Niyozova, G., Ahmedova, M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. Toshkent: «Noshir», 2011.
3. Qalandarova D, Jo'rayev O. Abdulla Avloniy –mohir dramaturg va tarjimon. “Turkiy xalqlar adabiyoti: Adabiy aloqalar, adabiy ta'sir va tarjima” Toshkent: 2022. 715-718-b.
4. Qalandarova D, Jo'rayev O. Abdulla Avloniy – o'zbek ma'rifatchiligining asoschisi. “Pedagogical sciences and teaching methods” Copenhagen “Science Edition” Volume1, Issue 13. May 2022. B.113-116.
5. Qalandarova D, Jo'rayev O. “Yusuf va Zulayho dostonining poetik talqini”. “Pedagogical Sciences and Teaching Methods”, Berlin 13 June 2022. B.129-132.
6. Qalandarova D, Jo'rayev O. Asarlarga ko'chgan tarix. Turkey. International scientific-online conference: “Theory and Analytical Aspects of Recent Research” Part 5, Issue 1 MAY 31<sup>st</sup>. B.208-213.
7. Juraev Oybek. Abdulla Avlani and the National Independence Movement. Volume 5, Issue 11 | Nov -2022. B.397-400.